

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ
МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ
БОШҚАРИШ SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich

AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович

ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Baxshilloevich

TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич

ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna

APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэльевна

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo

DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фарҳад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY
XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR
TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA
TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA
PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabjanovna</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	297-301

13.00.00 – Педагогика фанлари

Ergashev Omonboy Turgunbayevich
Namangan davlat universiteti
“Pedagogika nazariyasi va tarixi”
kafedrasida tayanch doktoranti.

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY ZARURATI VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada talabalarning ong va madaniyatiga badiiy tafakkurning ta'siri, rivojlanish tamoyillari hamda funksional ahamiyati, badiiy tafakkurdagi milliy va umuminsoniy badiiy qadriyatlar integratsiyalashuvining xarakteri, ularning ijtimoiylashish qonuniyatlarini pedagogik tahlil qilinib, ijtimoiy ong va madaniyat taraqqiyotini rag'batlantiruvchi omillar tizimida badiiy tafakkurdan foydalanishning konstruktiv-ratsional usullarini topish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tafakkur, madaniy tafakkur, ijtimoiy ong, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy-didaktik, ijodiy qobiliyat, ma'naviy-madaniy.

Эргашев Омонбой Тургунбаевич
докторант кафедры «Теория и история педагогики»
Наманганского государственного университета.

СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье влияние художественного мышления на сознание и культуру учащихся, принципы развития и его функциональное значение, характер интеграции национальных и общечеловеческих художественных ценностей в художественном мышлении, педагогический анализ их. В статье анализируются законы социализации, конструктивно-рациональное использование художественного мышления в системе факторов, стимулирующих развитие общественного сознания и культуры. освещаются вопросы поиска методов.

Ключевые слова: художественное мышление, культурное мышление, общественное сознание, социальное развитие, социальная установка, социально-дидактическая, творческая способность, духовно-культурная.

Ergashev Omonboy Turgunbayevich
Doctoral student of the department
«Theory and history of Pedagogy» of
amangan state university.

THE SOCIAL NECESSITY AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' ARTISTIC THINKING

Abstract. In the article, the impact of artistic thinking on the consciousness and culture of students, the principles of development and its functional significance, the character of the integration of national and universal

artistic values in artistic thinking, the pedagogical analysis of their socialization laws, the constructive-rational use of artistic thinking in the system of factors stimulating the development of social consciousness and culture are analyzed in the article. the issues of finding methods are highlighted.

Key words: artistic thinking, cultural thinking, social consciousness, social development, social attitude, social-didactic, creative ability, spiritual-cultural.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N34>

Badiiy tafakkur o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida inson ma'naviy kamolotini yuksaltirish, badiiy dunyoqarashini shakllantirish, estetik his tuyg'ularini boyitish kabi muhim ijtimoiy funksiyani bajarib kelgan.

Insoniyat tafakkur taraqqiyotining ma'naviy-madaniy mezonlar tizimida badiiy tafakkur alohida ahamiyat kasb etib, badiiy tafakkur ijtimoiy munosabatlarini hayotiy badiiy timsollarda aks ettirish orqali mavjud jamiyat kishilarining madaniy saviyasi darajasi hamda dunyoqarashini ifodalash bilan birga, inson shaxsini tarbiyalash kabi murakkab funksiyani ham bajarib kelgan.

Jahon pedagogikasida erishilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida ta'lim oluvchining kasbiy kompetentligini mustahkamlash bilan birgalikda, uning mustaqil fikr yuritishi, erkin mushohada qilishi birlamchi omil bo'lib, bu borada badiiy tafakkur barcha omillarning poydevoridir.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqilarida – "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur" [1] deb ta'kidlaganlari xozirgi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifa ekanligini belgilab beradi.

Binobarin, jamiyat kishilarining ijtimoiy-madaniy faoliyati bilan bog'liq ma'naviy-madaniy hayotini kompleks-sistemali o'rganishda, millatning badiiy-madaniy darajasi, uning potensial imkoniyatlarini ilmiy tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, biz o'rganayotgan mavzuning dolzarbliigi:

- birinchidan, tarixan shakllangan milliy va umuminsoniy badiiy tafakkurning shaxs ong va madaniyatiga ta'sirini, rivojlanish tamoyillari va funksional ahamiyatini falsafiy tahlil qilish;
- ikkinchidan, ijtimoiy-ma'naviy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda badiiy tafakkurning sub'yektiv omil sifatidagi ta'sir imkoniyatlarini ko'rsatish;
- uchinchidan, badiiy tafakkur rivojlanishi bilan shaxs ma'naviy madaniy tafakkur darajasining aloqadorligi, deterministik bog'lanish va taqozolanganligini o'rganish;
- to'rtinchidan, badiiy tafakkurdagi milliy va umuminsoniy badiiy qadriyatlar integratsiyalashuvining xarakteri, ularning ijtimoiylashish qonuniyatlarini pedagogik tahlil qilish;
- beshinchidan, badiiy tafakkurning hozirgi davrda globalashayotgan madaniy muammolarni hal qilishdagi ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy rolinini ko'rsatish;
- oltinchidan, jamiyat taraqqiyoti taqozosi bo'lgan: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarini madaniylashtirishda badiiy tafakkurning o'rni va rolini o'rganish;
- yettinchidan, ijtimoiy ong va madaniyat taraqqiyotini rag'batlantiruvchi omillar tizimida badiiy tafakkurdan foydalanishning konstruktiv-ratsional usullarini topish masalalarini ilmiy hal qilish zaruriyati bilan belgilanadi.

Qadimgi davr san'atining tarixiy-badiiy manbalaridan bo'lgan xalq og'zaki ijodiyoti namunalarida, ilk tosh bosma bitiklarida, keyinchalik shakllangan yozma badiiy tafakkur namunalari insonning ongli munosabati haqida g'oyat qimmatli fikrlar uchraydi. Bunda ma'naviyatni, xususan so'z san'atini o'zida mujassam etgan badiiy adabiyot ajdodlar amaliy tarbiya tajribasida asosiy usul va vosita hisoblangan. Masalan, Olam va odamning yaratilishi"[13;10-b.] kabi qadimgi afsonalar mohiyatiga, inson va jamiyat uyg'unligi, insonning milliy madaniy xususiyatlarni avaylab-asrashga mas'ulligi singdirib yuborilgan.

Insoniyat tarixining nisbatan keyingi davrlarida Sharq va G'arbning buyuk mutafakkirlari ham bu masalaga alohida e'tibor qaratishgan. Masalan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy san'at inson qalbida go'zallik, ezgulik va foydalilikning uyg'unligini ta'minlaydi, deb hisoblagan[5; 143-144-b.]. Shuningdek, yunonistonlik faylasuf, notiq Horgiy: "San'at odamlarni boshqa hunarlardan ko'ra ko'proq ishontiradi... Dori-darmon jismimizga qanday ta'sir o'tkazsa so'z ham ruhimizga shunday ta'sir ko'rsatadi" [17; 52-b.], degan edi.

Badiiy tafakkurning inson va jamiyat hayotidagi o'rni to'g'risidagi qarashlar tarixida Arastu ta'limoti alohida o'rin tutadi. Uning fikricha. "Tabiat insonga intellektual va axloqiy kuchni bergan, ammo, u bu quroldan teskari tomonga ham foydalanishi mumkin. Shuning uchun axloqiy kafolatlarsiz bo'lgan inson eng murtad va yovvoyi mavjudotdir" [4; 162-b.]. Faylasufning bu fikridan inson fe'lidagi yovuzlikni bartaraf etib turuvchi vositalarga, xususan badiiy tafakkurga ehtiyoj muhim ahamiyatga egaligini anglash mumkin. Keyinchalik, Sharqda "Ikkinchi muallim" unvoniga sazavor bo'lgan Abu Nasr Farobiy ham Aristotel g'oyalarini rivojlantirib, o'zining "She'r san'ati", "Shoirilar she'r yozish san'ati qonunlari haqida" [3; 110-125-b.], degan asarlarida poeziyaning inson ruhiga emotsional ta'siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Tarixiy taraqqiyot davomida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat va Ogahiy kabi yuzlab Sharq buyuk mutafakkirlarining adabiy asarlaridagi teran ta'limotlar umuminsoniyat ma'naviy merosi sifatida e'tirof etilishi va umumjahon ma'naviy tafakkur rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilganligi tarixiy haqiqatdir.

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs. Uning "Layli va Majnun" dostonida o'tkinchi dunyo tashvishlari va odamlarining ta'na-yu doshnomlaridan bezor bo'lgan Qays sahroga chiqib, "vahshatlik eldin ulfat rishtasini uzib, vahshiylar bilan do'stlashadi" [7; 467-b.], ularni Nafal singari ovchilar zulimidan qutqarib, himoya qiladi. Qaysni odamlar "majnun-telba" deb, atashsa-da, uning qalbida borliqqa, tabiatga, uning jonzotlariga mehr-muhabbat, rahm-shafqat, achinish hissi o'zi yashagan jamiyat odamlarga nisbatan cheksiz. Shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning ariq qazib, elga suv keltirishi, yoki "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" [2; 778-779-b.] ruboiysining mazmuni mohiyatida ham axloq, tarbiyaga oid juda qimmatli g'oyalar mujassamlashgan.

Umuman olganda Sharq, xususan o'zbek klassik adabiy tafakkurida shaxs ongi va madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy asoslarini ko'plab topish mumkin. Bobir, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Ogahiy, G'urbat kabi ijodkorlarning bu mavzuga daxldor ijodiy merosi bunga dalildir. Ogahiyning "Tav'viz ul oshiqin" ("Oshiqlar tumori" [11; 10-11-b.]) devoni va boshqa tillardan tarjima qilgan "Kalila va

Dimna”, “Xaft paykar”, “Qobusnoma”, “Axloqi Muqsiniy” kabi ijtimoiy-didaktik xarakterdagi asarlar insonning badiiy tafakkurini rivojlantirishga katta xizmat qilgan badiiy ijod namunalari.

Shuningdek, Ibrohim Rahimning “Hayot buloqlari”, “Odam qanday toblanadi”, Said Ahmadning “Qirq besh kun”, Sharof Rashidovning “Bo‘rondan kuchli”, “G‘oliblar” romanlari, Rahmat Fayzining “Cho‘lga bahor keldi”, Hakim Nazirning “Cho‘l bekasi” ocherklari, M.T.Oybekning “Oltin vodiya shabadalar” romanlari va boshqa shunga o‘xshash asarlarda zamonning ruhi ustuvor bo‘lgan holda badiiy tafakkur namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, O.Yoqubovning “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Diyonat”, A.Muxtorning “Chinor”, S.Axmadning “Jimjitlik”, M.Muhammad Do‘stning “Lolozor”, T.Po‘latovning “Mulk”, “G‘oyibning qaytishi”, S.Karomatovning “Oltin qum” kabi asarlar ham talabalarning badiiy tafakkurini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, mavjud ilmiy manbalarni sinchiklab o‘rganish va tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgacha olamshumul muammoga aylangan ijtimoiy muammolarni hal etishda badiiy tafakkur namunalari o‘rni, uning shaxs badiiy dunyoqarashi va madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq muhim ilmiy-nazariy muammolari alohida tadqiqot mavzusi sifatida, maxsus o‘rganilmasdan, ilmiy jamoatchilik e‘tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Badiiy tafakkurning, ma‘naviy hodisa sifatida, ijtimoiy taraqqiyotga ta‘sir yo‘nalishlari qator fanlar tomonidan o‘ziga xos tamoyillar asosida o‘rganiladi. Zero, adabiyot ma‘naviy madaniyat mohiyatini tashkil etadi va uning ko‘zgidir [10; 39-b.]. Xususan badiiy adabiy tur va janrlarining inson ruhiyatiga ta‘sir qiluvchi sub‘yektiv omil maqomini tahlil qilish, uning funksional taraqqiyoti yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Adabiyot ijtimoiy ongning maxsus shakli bo‘lib, jamiyat mahsuli va ayni damda, uning madaniy taraqqiyoti darajasini ham ifodalaydi. Biz tadqiq qilayotgan mavzu doirasida esa, talabalarning badiiy tafakkuriga va madaniyatiga ta‘sirini ijtimoiy-pedagogik, madaniyat nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish, uning o‘ziga xos ko‘p qirrali funksional xususiyatlarini kompleks-sistemali aniqlashga yo‘naltirilgan.

Badiiy tafakkurning jamiyatga, uning kishilariga ta‘sir imkoniyatlari, yo‘nalishlari dunyo olimlari tomonidan keng o‘rganilib, muqobil qarashlar ilgari surilgan. Badiiy tafakkurning in‘ikos ob‘yekt bo‘lgan ijtimoiy borliqning dinamik o‘zgarishi jarayonida, uning kelib chiqish genezisi va ontologiyasiga doir talqinlarida, badiiy tafakkur va sivilizatsiya munosabatlariga oid bahs-munozaralar hamon davom etib kelmoqda. Masalan, “Madaniy antropologiya”ning yirik vakillaridan biri U.Teylor: “Badiiy tafakkur moddiy ob‘yekt yoki ko‘z ilg‘aydigan zohir hatti-harakat, fe‘l-atvor emas, balki avvalambor ma‘naviy ko‘rinishdir” [16; 237-b] desa, F.Begbi badiiy tafakkurni moddiylikdan “tozalash”ga intilib, kitobning jismoniy ob‘yekt sifatida badiiy tafakkurga tegishli ekanligini inkor etadi. Uning fikricha, badiiy tafakkurga faqat o‘y-fikrlarni kiritish mumkin [12; 77-87-b.]. Yoki, ulug‘ hind yozuvchisi Robindranat Tagor “Adabiyotning mazmuni” nomli maqolasida: “Tashqi dunyo bizning ongimizga ta‘sir qilib, unda boshqa dunyoni vujudga keltiradi. Bu dunyo tashqi dunyoda hosil bo‘lgan bo‘yoqlar, obrazlar, tovushlar va boshqalarga liq to‘la bo‘lish bilan birga, bizning yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi tushunchalarimiz ham, qo‘rqish, ajablanishlarimiz, qayg‘u va shodliklarimiz ham, u bilan chambarchas bog‘liq, uning turli-tuman tashqi ifodasi ma‘naviy dunyomizdagi xazinamizga bog‘liqdir” [15; 36-b.], degan xulosaga keladi.

Xullas, bunday ta‘riflarda badiiy tafakkur, faqat ma‘naviy hodisa sifatida talqin qilinadi. Ayni paytda, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojida, badiiy tafakkur to‘g‘risidagi ta‘riflarda muayyan

o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu fikrlarni umumlashtirib aytganda, badiiy tafakkur - inson tarixiy amaliyotida tabiiy va ijtimoiy borliqqa munosabatining o'zgartirilgan ideal shaklidir.

Yuqorida nomi qayd qilingan mualliflarning badiiy tafakkurga bergan ta'riflarini, bu ijtimoiy hodisani o'rganishga qo'shilgan o'ziga xos hissa, deb hisoblash mumkin. Albatta, ijtimoiy munosabatlar badiiy tafakkur shakllanishining manbai, lekin inson ruhi uning rivojiga ta'sir qilmaydi, degan fikrlarda bir tomonlama yondoshuv ko'zga tashlanadi. Bunda, bizning nazarimizda, badiiy obrazlarni yaratish jarayoni yetarli darajada aks ettirilmagan. Badiiy tafakkurni konkret-tarixiy amaliyot sohasidan keltirib chiqaruvchi yana boshqa ko'plab ta'riflar ham bor. Masalan, V.I.Mejuev: "Badiiy madaniyat - o'zida insonning tabiat va jamiyat bilan amaliy birligi, uning tabiiy va ijtimoiy shartlangan faoliyatida mavjudligining ma'lum usulini aks ettiradi" [8; 101-b.], deb yozishi bilan, uning uslubligiga ustuvor ahamiyat bergan, ya'ni bu holatda, bir tomondan, asosiy e'tibor insonning o'ziga, uning mavjudligi usuliga qaratiladi, ikkinchi tomondan esa, bu yerda ham konkret-tarixiy amaliyot taklif qilinayotgan ta'rifning asosini tashkil qiladi. Badiiy tafakkur insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida erishilgan ma'naviy boyliklari darajasini ko'rsatadigan asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, badiiy adabiyotning mazmunida fikr erkinligidan, faoliyat erkinligiga o'tishga imkon beruvchi sub'yektiv omilning qudratini va uning ta'sirida vujudga kelgan ob'yektiv reallikni ko'ramiz. Zero, insoniyat tomonidan to'plangan moddiy madaniyatning har qanday shakli va ma'naviy kuch-qudratning ahamiyati o'z ifodasini badiiy adabiyotda topadi. Binobarin, shu ma'noda badiiy tafakkurning talabalarning dunyoqarashi va madaniyatiga ta'sirini tahlil etish nazariy-metodologik ahamiyatga ega. Chunki, badiiy adabiyot tarixiy kelib chiqish genezisiga ko'ra ob'yektiv hodisadir. Lekin, inson ongiga ta'siri nuqtai nazardan sub'yektiv omil rolini bajaradi [14; 230-b.].

Badiiy tafakkurda ob'yekt va sub'yekt munosabatlarini talabalar ongi, madaniyatini shakllantirish kontekstida olib qaraydigan bo'lsak, jamiyat ma'naviy hayotidagi rolining oshib borish qonuniyatini ko'ramiz. Ayni damda, adabiyot "suvratdan siyratga, jamiyatdan insonga, tashqaridan ichkariga qaytayotgandek, irmoqdan dengizga ulanayotgandek taassurot beradi" [9; 262-b.]. Bu fikrlarni ham tizimlashtirib aytadigan bo'lsak, badiiy tafakkur - moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratishga qaratilgan jismoniy kuchni va aqliy salohiyatni rag'batlantiruvchi ijodiy faoliyat jarayonidir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, ya'ni: badiiy tafakkur qandaydir qotib qolgan, qat'iy chegaralangan holat emas, balki o'zida ijtimoiy amaliyot taraqqiyotining dinamik xususiyatlarini aks ettiradi va unga xizmat qiladi.

Bizningcha, badiiy tafakkurning talabalarning madaniy dunyoqarashi va madaniyatni shakllantirishdagi rolini ta'riflash masalasiga ham xuddi shu nuqtai nazardan yondoshish kerak. Agar badiiy tafakkurning voqelikni badiiy amaliyot nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ikki asosiy shaklda namoyon bo'lishini ko'ramiz. Birinchidan, asosi ijtimoiy amaliyot bo'lgan konkret tarixiy hodisa badiiy tafakkurda talabaning dunyoqarashi va ijtimoiy mas'uliyatini anglash shakli sifatida o'z aksini topadi. Bu holatda, badiiy tafakkur insoniyat hayotida ijtimoiy borliqni badiiy obrazlarda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning maxsus shakli hisoblanadi. Shuningdek, badiiy tafakkur ijtimoiy-tarixiy tajribalarni va shakllangan qadriyatlarni janrlariga xos tarzda aks ettiradi, jamlaydi, umumlashtiradi hamda ommaga transformatsiya qiladi. Ikkinchidan, badiiy tafakkurning ma'naviy madaniyat tizimidagi funksional differensiyalashish xususiyatiga qarab maxsus vazifalari belgilanishi mumkin. Badiiy tafakkur muammolariga bag'ishlangan maxsus adabiyotlarda uning o'ziga xos vazifalari ajratib ko'rsatiladi. Masalan,

L.N.Kogan badiiy tafakkurning: insonparvarlik, normativ, aksiologik, semiotik va boshqa ijtimoiy vazifalarini ajratib ko'rsatadi[6; 10-11-b.]. Bunday turkumlashtirish hozir ham ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, badiiy tafakkurni ma'naviy madaniyatning muhim qismi sifatida talabalarning badiiy madaniyatini shakllantirishdagi funksional roli muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, badiiy qadriyatlarining, ijod amaliyoti ko'rinishlarida qo'llanilishi, uning avtanom rolini va mustaqil ahamiyatini to'liq namoyon qila olmaydi. Shuning uchun badiiy tafakkurda, uning umumiy taraqqiyotini ta'minlashi uchun zarur bo'lgan asosiy ob'yektiv shart-sharoitlarni, sub'yektiv omillarini belgilab beradigan madaniy-tarixiy motivlarni, harakatlantiruvchi mexanizmlarni turkumlashtirish bilan bog'liq bo'lgan vazifani aniqlash kerak.

Shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni: badiiy tafakkur ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonini umumlashtiradigan, o'zini inson harakatlari va faoliyatida hamda bu faoliyat natijalarida topuvchi bilimlar va tajribaning badiiy obrazlar orqali o'zlashtirilishidir. Bu xulosalarga ko'ra, badiiy tafakkur insoniyat tomonidan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zlashtirgan tajribaning sifat holatidir. Insonning tafakkur tarzi u yashab turgan mintaqaning ijtimoiy shart-sharoitiga, turmush maromiga va mavjud jamiyat kishilarining tabiat to'g'risidagi dunyoqarashi hamda unga bo'lgan munosabatlari bilan uzviy bog'liqdir. Demak, inson ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy sifatlari bilan mavjud jamiyatga daxldor. U yaratgan badiiy tafakkur esa, shu ma'noda ijtimoiy-didaktik va falsafiy-pedagogik hodisadir.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (20 dekabr 2022 yil). <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>.
2. Алишер Навоий. Топмадим: Ғазаллар/. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1988. – 784 б.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри (Танланган асарлар). “А.Қодирий номидаги халқ мероси” -Т.: 1993. – 224 б.
4. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари/ Масъул муҳаррир С.Шермухаммедов.-Т.: “Маънавият”, 2008. – 464 б.
5. История эстетической мысли. -М.: 1985. Т.1. – 461 с.
6. Коган Л.Н. Художественная культура и художественное воспитание М., 1979,- 64 с.
7. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. - Т.: “Ўқитувчи”, 1976. – 662 б.
8. Межуев В.И. Культура и история. М.: 1977,- 199 с.
9. Мустақиллик даври адабиёти: Адабий-танқидий мақолалар, бадиалар: Таҳрир ҳайъати : А.Орипов ва бошқ. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нарийёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
10. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси / А.Маврулов. – Т.: “ Ўзбекистон”, 2008.
11. Огаҳий. Шеърятдан. - Т. “Ўзбекистон”, 1983.
12. Ph. Vagbu. Cultura and history. N-Z-L, 1958. pp. 77-87.
13. Раҳмонов И, Болтабоев Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари.1-жилд. –Тошкент.: Фан. 2003.- 252 б.
14. Фалсафа. Қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004. – 496 б.
15. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 368 б.
16. Цит. По L.White. The concept of culture – American anthropologist, vol. 61, 1969. p. 237.
17. Ҳақиқат манзаралари. Қайта нашри, “Янги аср авлоди”.-Т.: 2007.-Б.52.



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).